

## HUSNBUZAR KASALLIGINI DAVOLASHDA RUX VA DOKSISIKLIN DORI PREPARATLARINING BIRGALIKDAGI SAMARADORLIKNI ANIQLASH

Xayitova Nigora Dilmurodovna

Magistr Resident, Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti Dermatovenerologiya  
va Bolalar dermatovenerologiya kafedrası.

Husnbuzar kasalligi – Akne birinchi marta 542 yilda imperator I.Yustinianning shifokori tomonidan tasvirlangan. Husnbuzar-bu bolalar va o'spirinlar orasida eng ko'p uchraydigan terining shikastlanish kasalligidir. Retrospektiv kogort tadqiqotlari natijalariga ko'ra husnbuzar kasalligi teri kasalliklari orasida 28,6% ni, 19,4 % dermatitlar va 16,2% so'gallar tashkil etadi. Ko'p yillar davomida shifokorlar husnbuzar kasalligining patogenezini aniqlashga harakat qilishgan . Husnbuzar-polimorf multifaktorli kasallik bo'lib, teridagi yog' bezlari va folikulalarning zararlanishi bilan kechadi. O'smirlar va o'rta yoshli insonlarning 80% bu kasallikka chalinishadi. Kasallik seboriya, shakillangan komedon, yallig'lanuvchi husnbuzar,absess, psevdokista va chandiq ko'rinishida xarakterlanadi. Kasallik asosan tez-tez kuzatilinadi, bemorlarning faqatgina 20% shifokorga murojat qiladi. Rux elementi inson organizmida saqlanmaydigan mikroelement hisoblanib, insonlar ularni tashqi muhitdan oziq – ovqatlar orqali orgazimlariga kiritishadi. Shu sababi insonlar rux elementiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishlari zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki , inson terisining yuza qavatida joylashgan Cutibacterium acnes yoki Propionibacterium acneslarni yo'qotish xususiyatiga ruxli malhamlar ega hisoblanadi. Ruxli malhamni antibiotiklar bilan birga qo'lash ham samarali natijani beradi. Rux inson terisida mavjud yog' sekretsiasini ham normallashtiradi. Bundan tashqari androgen gormonlarni normallashtirishi hisobiga teridagi turli xil toshmalarni oldini oladi. Ruxli malhamni yuz terisiga qo'llasak yuz terimizdagi yallig'lanish jaroyini pasaytirishga ham yordam beradi. Husnbuzar kasalligining profilaktikasida rux preparatini uzoq muddat qo'lash orqali ,o'smir yoshlar sezilarli natijalarga erishdilar.

**Kalit so'zlar:** Rux preparati, husnbuzar kasalligi,Doksisiklin.

**Maqsad:** Husnbuzar kasalligida “Doksisiklin”dori vositasini, Rux preparati bilan birga qo'llashdagi samaradorlikni aniqlash .

**Material va uslublar.** Bizning kuzatuvimiz ostida 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan 19 nafar husnbuzar kasalligiga chalingan, erkak va ayol jinsidagi bemorlar bo'lishdi. Biz bemorlarimizga olti hafta ya'ni 42 kun davomida Doksisiklin (100mg) va Zinc Sulfate dori vositasini bir kunda ikki mahal iste'mol qilishlarini tavsiya berdik.

**Natija va ularning muhokamasi.** “Doksisiklin” hamda “Zinc Sulfate” dori vositalarini 19 nafar bemorlarimiz 42 kun davomida iste'mol qilishdi. Tadqiqotimizning 20 -25 kunlarida bemorlarimizning yuz terisida mavjud bo'lgan yallig'langan elementlarning so'rilganligini ko'rishimiz mumkin. Biz bu natijani I.P.Ashmarin va A.A. Vorobev (1962) tomonidan tavsiya etilgan usullar va mezonlardan foydalangan holatda ( $M \pm m$ )  $17 \pm 0,2$  tashkil etdi .

### **Xulosa**

Husnbuzar kasalligining yallig'lanish bosqichidagi bemorlarni davolashda “Doksisiklin” hamda “Zinc Sulfate” dori vositalari birgalikda 4 haftadan kam bo'lmagan 8 haftadan ortiq bo'lmagan muddatlarda davolash samarali natija beradi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. Adjamal Mohammed Xan. Rol androgenov i ix retseptov v patogeneze akne vulgaris i lecheniye roakkutanom. Diss.kand.med.nauk.1996.145s
2. Evidence- based Dermatology, Second Edition Edited by Hywel Williams 2008 Blackwell Publishing . Avanta P.Collier, Scott R.Freeman, Robert P.Dellavella ;Acne vulgaris.
3. Koshevenko Y.N. Chelovecheskaya koja. Polnoye Rukovodstvo dlya vrachey. M. Meditsina. 1tom -2006yil, 2tom-2008yil.
4. Kalamkaryan A.A., Buxarovich A.M. Xronicheskaya stafilokokivaya infektsiya koji. Kiyev 1990; 7-45.
5. Raxmatov. O.B. Xayitova N.D., O'smir yoshlarda husnbuzar kasalligiga irsiy moyillikni aniqlash va profilaktika maqsadida rux preparatining samaradorligini baholash.